

MUSIQIY-ESTETIK TAFAKKUR VA MUSIQA PSIXOLOGIYASINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Azatov Sardorbek Elbrusovich

UzDSMI, "Vokal" kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20688819>

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqiy-estetik tafakkur va musiqa psixologiyasining o'zaro bog'liqligi masalalari tahlil qilinadi. Musiqaning inson ruhiyati, estetik dunyoqarashi hamda hissiy tafakkuriga ta'siri ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, musiqani idrok etish jarayonida psixologik omillarning ahamiyati, musiqiy tafakkurning shakllanishida estetik tarbiyaning o'rni haqida fikr yuritiladi. Maqolada musiqa san'atining inson ma'naviy kamolotidagi ahamiyati ham ochib berilgan.

Kalit so'zlar: musiqiy-estetik tafakkur, musiqa psixologiyasi, estetik tarbiya, musiqiy idrok, hissiy ta'sir, musiqa san'ati, ruhiy holat.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы взаимосвязи музыкально-эстетического мышления и психологии музыки. Научно освещено влияние музыки на человеческую психику, эстетическое мировоззрение и эмоциональное мышление. Также обсуждается важность психологических факторов в процессе восприятия музыки, роль эстетического воспитания в формировании музыкального мышления. В статье также раскрывается значение музыкального искусства в духовном развитии человека.

Ключевые слова: Музыкально-эстетическое мышление, психология музыки, эстетическое образование, музыкальное восприятие, эмоциональное воздействие, музыкальное искусство, психическое состояние.

Annotation. This article analyzes the issues of the relationship between musical-aesthetic thinking and the psychology of music. The impact of music on the human psyche, aesthetic worldview and emotional thinking is scientifically covered. It also discusses the importance of psychological factors in the process of music perception, the role of aesthetic education in the formation of musical thinking. The article also reveals the importance of musical art in the spiritual development of a person.

Keywords: musical-aesthetic thinking, music psychology, aesthetic education, musical perception, emotional impact, musical art, mental state.

Musiqa qadimdan inson ruhiyatiga kuchli ta'sir etib kelayotgan san'at turlaridan biri hisoblanadi. U insonning his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari va estetik qarashlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, musiqiy-estetik tafakkur insonning musiqani his qilishi, uni anglash va badiiy jihatdan baholash jarayonida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda musiqa san'atini nafaqat ijrochilik yoki nazariy jihatdan, balki psixologik tomonlama ham o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki inson musiqani avvalo hissiyot orqali qabul qiladi. Har bir kuy yoki qo'shiq tinglovchida turli ruhiy holatlarni uyg'otishi mumkin.

Shu sababli musiqa psixologiyasi musiqaning inson ongiga, kayfiyatiga va emotsional holatiga qanday ta'sir qilishini o'rganadi.

Musiqiy-estetik tafakkur va musiqa psixologiyasi bir-biri bilan uzviy bog‘liq tushunchalardir. Estetik tafakkur orqali inson musiqadagi go‘zallikni his etsa, psixologik jarayonlar orqali uni ichki kechinmalar bilan qabul qiladi. Ayniqsa, yosh avlodning ma‘naviy va estetik tarbiyasida musiqaning o‘rni nihoyatda muhimdir.

Shu jihatdan qaraganda, musiqiy-estetik tafakkur hamda musiqa psixologiyasining o‘zaro aloqadorligini o‘rganish bugungi kun san‘atshunosligi va musiqa pedagogikasining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

San‘atdagi his-tuyg‘u va tafakkur uyg‘unligi uning estetik ong shakli va estetik faoliyatni belgilaydigan muhim jihat bo‘lib, bu san‘atning ma‘naviyat tizimining tarkibiy qismi, ma‘naviyat fenomeni maqomida amal qilishining zaruriy sharti hisoblanadi.

Barchamizga ma‘lumki, musiqa san‘atidagi asosiy faoliyatlardan biri musiqa ijrochiligidir.

Mukammal ijroni tinglab, lazzat, quvonch, ilhom tuyg‘ularini his etamiz yoki Yunonlar aytganidek, «katarsis» – ichki, ruhiy poklanish va yangilanish jarayonini boshdan kechiramiz.

Ijrochi – bastakor, kompozitor va tinglovchini bog‘lab turuvchi halqadir. Musiqiy ijrochilik san‘atidagi farqlar musiqiy cholg‘uning o‘ziga xos xususiyatiga, yakkaxon va ommaviy ijrochilik shakli, musiqiy asarning janri va shakliy xususiyatiga, qolaversa, birinchi o‘rinda ijodiy individuallik, ijrochining professional tayyorgarlik va mahorat darajasiga bog‘liq. Ijrochi uchun tinglovchi psixologiyasini tushunish va his etish, estetika talablari va auditoriya kayfiyatini to‘g‘ri anglash, muallif fikrini mohirlik bilan etkazib berish, auditoriyani o‘z irodasiga bo‘ysundirish, tinglovchida go‘zal estetik hissiyotlarni uyg‘otish, ijodiy kayfiyat juda muhimdir.[4.B,7;]

Musiqani tinglab idrok etishni ham xuddi musiqa yozish va ijro etish kabi musiqa san‘atidagi asosiy faoliyat turi deb hisoblash lozim. Qolaversa, tinglovchisiz musiqa san‘ati o‘z ma‘nosini yo‘qotadi va yashashdan to‘xtaydi. Musiqa tinglash va uni idrok etish musiqa faoliyatining shunday turiki, u bolalikdan tarbiyalanadi va singdirib boriladi. Aytishlaricha, musiqani barcha eshitadi, biroq uni hamma ham tinglab idrok eta olmaydi.

Musiqani tinglash jarayonida idrok etish darajasi tinglovchining umumiy madaniyati va musiqiy tayyorgarlik darajasiga bog‘liq, unga to‘g‘ri proporsionaldir. Musiqiy asarning to‘liq va chuqur idrok etilishi, shuningdek, kompozitor va ijrochi mahoratidan ham dalolat beradi. Ana shu tarzda, tinglash jarayoni tinglovchining tarbiyasi, individual qobiliyatlari va tayyorgarligi bilan ajralmas holat deb xulosa qilish mumkin.

Qadim Turonzaminda, shuningdek, Sharqiy va Janubiy Sharqiy Osiyoning ko‘pgina mamlakatlarida musiqa tinglash tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanalgan hamda u o‘rganish zarur hisoblangan fanlar qatoriga kiritilgan. Jamiyatdagi barcha ziyoli, ma‘rifatli insonlar qo‘shiq kuylash yoki biror musiqa sozida chalish malakalariga ega bo‘lishni orzu qilishgan. Bu esa musiqa tinglash madaniyatining uzoq moziydan turli jamiyatlar ma‘naviy hayotida o‘rin tutgan o‘ziga xos tarbiya vositasi sifatidagi dolzarb ahamiyatidan guvohlik beradi.

Shu sababli, musiqa kuchli ruhiy-hissiy ta‘sir ko‘rsatuvchi tarbiya vositasi sanalgan va uni tinglash, idrok etish orqali inson o‘zida kuchli ijobiy kechinma va hissiyotlarni his qilishi, hatto musiqa insonni o‘zgartirishi mumkinligi borasidagi ilmiy asoslangan fikrlar Sharq allomalari asarlarida batafsil yoritilgan.

Manbashunos Z.Oripov fikricha, “Qadim zamonlardan musiqa mintaqalarning xalqlarining turmushida muhim ijtimoiy vazifalarni ado etib keldi. Bayramlar, sayillar, diniy marosimlar va boshqa yirik tadbirlar kuy, qo‘shiq, raqs va o‘yin- tomoshalarisiz o‘tmagan”[1.B,14;]

Ushbu yillarda musiqa amaliyoti ma‘lum darajada taraqqiy etdi va musiqaning ijtimoiy-madaniy hamda badiiy-estetik ta‘siri ortib, qator asarlar yaratildi.

Sharq allomalari tomonidan yaratilgan risolalar musiqa ilmining amaliy va nazariy jihatdan taraqqiy topishiga, pirovard natijada insonlarga ijobiy ta‘sir imkoniyatlari keng o‘rganilishiga asos bo‘ldi. Musiqa san‘ati jamiyat ma‘naviyatini yuksaltirishda, insonlarda ijobiy-estetik tuyg‘ularni shakllantirishda bag‘oyat katta imkoniyatlarga ega ekanligini teran anglagan ziyolilar undan tarbiya masalalarida foydalanish zarurligiga e‘tibor qaratdilar.

Buyuk mutafakkirlar Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abdulqodir Marog‘iy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ismatulloh Mo‘jiziy, Mahmud Qoshg‘ariy, Qutbiddin Sheroziy, Najmiddin Kavkabiyy Buxoriy, Faxriddin Muborakshoh, Darvesh Ali Changiy, Komil Xorazmiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur kabi allomalarning qator asarlarida keltirilgan musiqaga oid ma‘lumotlar bugungi kunda ham o‘z ilmiy va tarbiyaviy jihatlari bilan dolzarb ahamiyatga ega.

Zero, mazkur asarlarda musiqaning inson qalbi va ongiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi, unda yuksak insoniy fazilatlar: milliy ong, milliy g‘urur, milliy o‘zini-o‘zi anglash, mehr- shafqat, Vatanga, insonlarga nisbatan muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish imkoniyatlari nihoyatda kengligi ta‘kidlangan.

Musiqaning psixologik ta‘sir imkoniyatlarini o‘rganish borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar tarixiga nazar tashlaganda, musiqiy ritm va ladlarda insonlar qalbini musiqa kayfiyatiga moslaydigan botiniy imkoniyatlar mavjudligi aniqlangan. Aflotun fikricha, shunday musiqa asarlari bo‘lishi lozimki, ular insonlarni ijtimoiy talablar darajasiga ko‘tarsin. Shuningdek, Arastu inson psixikasini turlicha yo‘naltiruvchi musiqiy ladlar haqida yozib, ba‘zi ladlarda yangrovchi musiqa insonni rahmdil, yumshoq ko‘ngil qilsa, boshqalari kuchli psixik qo‘zg‘aluvchanlikni hosil qilishini uqtiradi.

Musiqa shaxsning ijtimoiy hayotda uyg‘unlashuvi uchun muhim vosita ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyani qator allomalar o‘z ishlarida ta‘kidlashgan. Buyuk Sohibqiron Amir Temur o‘z qo‘shinining jangovarligini oshirish uchun harbiy musiqachilar saqlagan. Ushbu harbiy orkestrda turli puflama va urma cholg‘u sozlar bo‘lgan hamda ularning tovushi kuchli, o‘ziga jalb etadigan, tantanavor ruh bag‘ishlaydigan bo‘lgan. Buyuk vatandoshimiz Abu Ali Ibn Sino esa musiqadan shifo maqsadida foydalangan.

B.M.Teplovning ilmiy xulosalariga ko‘ra, musiqaning chuqur mazmundorligini faqatgina musiqiy bilish emas, balki uning sarhadlaridan chiqib ketuvchi umumiy bilish vositalari nuqtai nazaridan to‘liq anglash mumkin. Musiqiy obrazlar olami o‘z-o‘zidan oydin va ravshan bo‘lib qolmaydi. Musiqa asarini tushunish, uni to‘g‘ri idrok qilish va ijro etish uchun ijrochi ushbu musiqani yaratgan bastakor yashagan davr, uning hayotga nisbatan qarashlari, insonlarga, tabiatga, san‘atga bo‘lgan munosabati bilan qiziqishi lozim. Albatta, musiqa yaratish jarayonida kompozitor yoki bastakor o‘z davri muammolarini his etadi, hayratlanadi, tashvishga tushadi va

qaygʻuradi. Agar inson ushbu kechinmalarning asl sabablarini anglab etsa, shunda musiqani chuqur his etadi va tushunadi.

Idrok faqatgina tinglovchining musiqada ifodalangan kechinmalarga mulohaza bildirishi emas, balki faol bilish jarayonidir. Tinglovchi ham maʼlum tajribaga ega ijrochi singari idrok etayotgan asari mazmuniga oʻz hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda quvonchini, qaygʻusini, tashvishini, umidlarini jo etadi. Shunda musiqiy idrok jarayoni ikki shaxs ichki dunyosining, yaʼni bir tomondan - tinglovchi, ikkinchi tomondan

— bastakorning badiiy muloqotiga aylanadi. Agar yuksak darajadagi ijroni tinglashga muvaffaq boʻlinsa, bu uch yaqin maslakdosh - bastakor, ijrochi va tinglovchining muloqotiga aylanadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, musiqiy-estetik tafakkur insonning badiiy idrokini, emotsional dunyosini hamda maʼnaviy-ruhiy kamolotini shakllantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Musiqa psixologiyasi esa ushbu jarayonning psixik mexanizmlarini, musiqaning inson ongiga, hissiyotiga va xulq-atvoriga taʼsirini ilmiy jihatdan tadqiq etadi. Mazkur ikki yoʻnalish oʻzaro uzviy bogʻliq boʻlib, biri ikkinchisini toʻldiradi hamda insonning estetik dunyoqarashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida ushbu yoʻnalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar yosh avlodning estetik tarbiyasini takomillashtirish, musiqiy taʼlim samaradorligini oshirish hamda inson psixologiyasiga musiqaning taʼsir mexanizmlarini yanada chuqurroq tadqiq etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Baxriyev A.R. Musiqiy ijrochilik malakalarini rivojlantirishda tinglovchilik madaniyatining imkoniyatlari. Toshkent – 2023.
2. Baxriyev A.R. Musiqiy pedagogika va psixologiya. “Musiqa”, Toshkent – 2019.
3. Baxriyev A.R. Musiqiy taʼlimning psixologik asoslari. “Musiqa”, Toshkent - 2019.
4. Qodirov R. Musiqa psixologiyasi. “Musiqa”, Toshkent – 2005.
5. www.Oyina.uz